

## **BOSHLANG`ICH TA`LIMDA TARBIYA FANINING AHAMIYATI**

## **Sheranova Maryam Bazarbaevna**

Jizzax davlat pedagogika universiteti pedagogika ta'limi nazariyasi  
kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD)

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Boshlang'ich sinfda tarbiya fanining ahamiyati, o`quvchilarning tarbiyasini shakllantirish, Boshlang'ich ta'linda tarbiya fanining o`rganish obyektini esa ta'lim muassalaridagi uzlusiz ta'lim – tarbiya jarayoni tashkil etishi, turli xil o`yin va metodlardan foydalanib darslarni qiziqarli va samarali tashkil qilish borasida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** tarbiya, boshlang`ich ta`lim, taraqqiyot, e`tabor, mohiyat, jarayon, pedaqoq.

Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil tarzda izohlanib kelindi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog'liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutufakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o'rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Tarixdan ko'pgina allomalarimiz tarbiyaga katta ahamiyat berib jamiyatning asosiy vazifalaridan deb bilishgan. "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" A. Avloniynning ushbu so'zlaridan ham tarbiya naqadar muhum ijtimoiy jarayon ekanligini bilib olishimiz mumkin. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining predmeti bo'lajak o'qituvchitarbiyachilarga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash sanatining qirralari, shakl va yo'llari hamda bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining o'rganish obyektini esa ta'limga muassalaridagi uzlusiz ta'limga –tarbiya jarayoni tashkil etadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Odob - odamning jamoat, el-yurt orasida o'zini tutish, boshqalar bilan qay yo'sin muomala qilish, o'z turmushi, maishati va bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, xullas, shaxsning kundalik xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakatlari

qanday bo'lishi lozim va ma'qul ekanligi xususida bahs etadi. Aniqrog'i, axloq kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Axloq kishidan har xil holatlarda qanday yo'l tutish kerakligini yaxshi o'ylab, maqsadga muvofiq harakat qilishni talab etsa, odob o'z qoidalarining odat tusiga kirishini, ya'ni har qanday vaziyatda ana shu odatni namoyon qilishini taqozo qiladi.

Chunki, biz bilamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilari juda o'yinqaroq bo'lishadi. Shuning uchun ham darslarni rang-barang metodlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Misol uchun "Ko'paytirish jadvali"ni tushunishida o'quvchi qiynaladi.

Ulardan ilgari ham foydalanib kelingan. Qachonki, bu metodlar samarali natija bera oladi;

- Dars vamavzuning maqsadlari to'g'ri aniq tanlanganda;

- Mavzuga mos metodlarni tanlay olinsa;

- Bir metod butun dars davomida qamrab olmasdan, balki kichik daqiqalarni qamrab olsa;

- Tanlagan metod o'quvchilarga yangi bir axborotlarni yetkazib bersa,o'quvchi mavzuni nima haqidaligini tezgina tushuna oladi.

O'qituvchilarning matematika fanlarini o'qitishda yo'naltirilgan darslar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqr o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.Ta'lim jarayoni o'quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuuni ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarning hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi o'quvchilar tomonidan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi.

Buning samarasi 2023- yil o'quvchilar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi. Aynan darsning shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga olib keladi. Ular yordami bilangina o'quv predmetining mavzusi borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, o'quvchilar

tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilinadi. Dars mashg'uloti uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lif jarayonining qarib 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. O'quvchilarni ijodiy izlanish, faoliik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lif shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi dars jarayonini samarali, qiziqarli, babs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Mana shu holatdagina o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiyl faoliyatni nazorat qila olish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish, hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi. Zamonaviy ta'lifni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lif jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdır.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ikromov J., Mirzaahmedov M. va boshqlar. Matematika. O'rta maktabning 5-6-sinflari uchun o'quv qo'llanma. -T.: O'qituvchi, 2002.
2. Mirzaahmedov M., Rahimqoriev A. Matematika 6-sinf. Umumiyl o'rta ta'lif maktablari 6-sinfi uchun darslik. -T.: O'qituvchi, 2007.
3. Колмогоров А.Н. Математика -наука и профессия. -М., 1998.
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. -М., 1998.
- 5.

"Umumiyo'rtata'limningdavlatta'limstandartlarinitasdiqlashto'g'risida"giqarori(1999 yil 16 avgust) //Xalqta'lifij. 1999. No 5